

DORIVOR O'SIMLIKLARNI BIOTEXNOLOGIK TAHLIL QILISH SAMARADORLIGI

Bo'ston Mamatqulova

Samarqand davlat tibbiyot universiteti akademik litseyi

Annotatsiya. Ushbu maqolada dorivor o'simliklardan foydalanishni ommalashtirishda xalqimizda ulardan samarali foydalanishning etikasini rivojlantirish va biotexnologik tahlil qilish haqida so'z boradi, har bir ma'dan yoki o'simlikdan foydalanishda organizmning individual xususiyatlaridan foydalanish ko'r- ko'rona foydalanishdan yuzaga keladigan oqibatlarni oldini olish muhim ahamiyatga ega ekanligi ushbu maqolada qisman yoritilgan.

Аннотация. В данной статье рассматривается вопрос популяризации использования лекарственных растений и развития этики их применения в народной медицине. Подчеркивается важность учета индивидуальных особенностей организма при использовании каждого минерала или растения, а также необходимость предотвращения последствий, возникающих при их бездумном применении. Эти аспекты частично освещены в статье.

Annotation. This article discusses the popularization of the use of medicinal plants and the development of ethical principles in their application within folk medicine. It emphasizes the importance of considering the individual characteristics of the human body when using each mineral or plant, as well as the need to prevent the consequences that may arise from careless or blind usage. These aspects are partially highlighted in the article.

Kalit so'z: dorivor o'simliklar, xalq tabobati, tibbiy etika, tabobat

Ключевые слова: лекарственные растения, народная медицина, медицинская этика, лечение

Keywords: medicinal plants, folk medicine, medical ethics, treatment

Hozirgi kunda dorivor o'simliklarga bo'lgan talab kundan sayin ortib borayotganligi hisobga olgan holda yurtimizda ham bu sohaga bo'lgan e'tibor kuchaytirilmoqda. Dorivor o'simliklarni madaniy holda yetishtirish hamda qayta ishlashni tashkil etish, dorivor o'simliklarning madaniy plantatsiyalarini barpo etishni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, kasalliklarning oldini olish va davolashda dorivor o'simliklarni keng qo'llash maqsadida Dorivor o'simliklarni madaniy holda yetishtirish va qayta ishlash hamda davolashda ulardan keng foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida (20.05.2022 yildagi PQ-251-son) ishlab chiqilgan qarorda bu sohadagi ishlarni yanada rivojlanishi uchun o'rinli yo'l xarita keltirib o'tilgan. Shu bilan birgalikda xalqimizni

xalq tabobatida qo'llaniladigan mahalliy vositalardan yoki tog'ridan tog'ri o'simlik yoki ma'danlardan foydalanish etikasini oshirish ham muhim ahamiyatga ega. Chunki ayrim hollarda dorivor o'simliklarni faqat bir tomonlama o'rganib yoki og'izdan og'izga o'tib kelgan xususiyatlari asosida foydalanish hollari ham uchrab turadi. Dorivor o'simliklardan foydalanishda har bir vosita xoh u tabiiy bo'lsin xoh tibbiy, organizmning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda har bir organizmga ta'sir spektri boshqacha namoyon bo'lishini e'tiborga olish lozim

Tabiatni muhofoza qilish to'g'risidagi va hukumatimizning qarorlari, shular asosida belgilangan choralar tabiatni, xususan dorivor o'simliklarni muhofaza qilish ishini yaxshilashga sabab bo'lmoqda. Shifobaxsh o'simliklarni muhofaza qilish qonun va qoidalari sathining ko'rinishini, manzarasini, o'simliklar dunyoning turlitumanligini, kam uchraydigan o'simliklarni, ekologik sistema va ularning o'zaro aloqasini hisobga olgan holda atrof-muhitni muhofaza qiladigan joylarni tashkil qilishni ko'zda tutish kerak. Yovvoyi holda o'sadigan shifobaxsh o'simliklar muhofaza qilinarkan, ulardan to'g'ri foydalanishni bilish kerak. O'rmon mevalarini, qo'ziqorinni, urug'ini, asal beruvchi o'simliklarni qaysi paytda yig'ib olishni bilish, ularning yo'qolib ketishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Tabiatni muhofaza qilish ishlarini tashkil etish mahalliy xalq deputatlariga topshirilgan. Hamma yerlarda, hudud, tuman xalq deputatlaridan tortib Oliy majlis deputatlari tarkibida atrof muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan tejamkorlik, omilkorlik bilan foydalanish masalalari bilan shug'ullanadigan deputat komissiyasi doimo ishlab turadi. Bu ishlarni amalga oshirish uchun joylarda tabiatni muhofaza qilish jamiyatlari ishlab turibdi. Bunday jamiyatlar o'z ish faoliyatlarida tabiatni muhofaza qilishni har xil ekskursiyalar, ko'rgazmalar, kinofilmlar, gazeta, jurnallar orqali targ'ibot qiladilar. Jamiyatning va uning birlamchi tashkilotlarining ishi davlat organlari tasdiqlagan kundalik va perspektiv planlar asosida olib boriladi. Jamiyat maktab o'quvchilari o'rtasida ko'kalamzorlashtirish, o'rmonlardagi o'simliklarni aniqlash, kartaga tushirish, kam uchraydigan va yo'qolib borayotgan va hayvon turlarining ham o'sish va yashash sharoitlarini o'rganib, hisobga oladilar va muhofaza qiladilar. Ular to'plagan ma'lumotlarini qayta ishlash uchun tabiatning muhofaza qilish jamiyati tashkilotiga toshpiradilar. Tabiatni muhofaza qilish jamiyati atrof-muhitni, tabiatni asrabavaylash qoidalarini buzuvchilarga qarshi kurash olib boradi. Ko'pincha bu qoidalarni buzuvchilar turistlar, ekskursiyaga chiqqanlar, meva va shifobaxsh o'simliklarni tayyorlovchilar bo'lishi mumkin. Shunday turistlar ham bo'ladiki, ular gulxanlarda dorivor o'simliklarni yoqadilar, daraxtlarni kesib, o't o'lanlarni payxon qiladilar, dam olgan erlarini iflos qilib ketadilar. Bundan tashqari, qishloqlar, o'rmon vaturbaza atrofidagi yo'llar borgan sari kengayib ko'payib boradi, shu tufayli o'simliklar borgan sari kamayib, yo'qolib ketishi mumkin. Bu esa o'rmon kompleksining buzilishiga, tabiat boyligining yo'qolishiga olib kelada. O'simliklar dunyosidagi

o'zgarishlar hayvonot olamiga ta'sir qiladi, sayroqi qushlar yo'qolishi, ikkilamchi zararkunandalar pavdo bo'lishi, kemiruvchilar ko'payishi mumkin. Bu esa shu joylarda epidemik jihatdan dahshatli holatga olib kelishi mumkin. Tabiatga mutlaqo zarar yetkazmay, uzoq vaqt dam olish uchun turizmni rejalashtirish va to'g'ri tashkil qilishda katta ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda jahon miqyosida tabiatning tuzatib bo'lmaydigan darajada buzilishiga qarshi keng kurash olib borilmoqda. Asrlar davomida yuzaga kelgan tabiat o'zgarishlarini hisobga olib, butun jonivorlarni saqlashga, ko'paytirishga qaratilgan keskin choralar ko'rilmogda. Bunga "Qizil kitob" misol bo'la oladi. Qizil kitobga Vatanimizdagi yo'qolib ketgan, yo'qolish ehtimoli bo'lgan, kam uchraydigan va kamayib borayotgan hamma yovvoyi o'simliklar kiritilgan. Vatanimizda o'sadigan o'simliklarning bir qanchasi davlat muhofazasiga olingan. Qizil kitob hamma shifobaxsh o'simliklarni tayyorlovchilarni, turistlarni, tabiat qo'ynida dam oluvchilarni tabiat boyliklaridan aql - idrok bilan foydalanishga da'vat etadi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karshibayev X.K., Maxkamov T.X. Dorivor o'simlar biologiyasi va ekologiyasi Guliston., 2022
2. Sanoyev Z.I. Turdiyev P. Q., Alimova N. X., Berdimurodov B. P., Farmakognoziya. Toshkent 2023